

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

5/S-son (4-jild)

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/5 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i><br>CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN .....  | 8-13  |
| <i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i><br>"XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA<br>O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI ..... | 14-18 |
| <i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i><br>ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI .....   | 19-22 |
| <i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i><br>SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN<br>ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI .....                        | 23-28 |

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i><br>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI<br>ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH<br>IMKONIYATLARI ..... | 29-34 |
| <i>Utkirov Anvar Utkirovich</i><br>KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI<br>TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI .....  | 35-44 |

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

|  |       |
|--|-------|
| <i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i><br>GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY<br>YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI ..... | 45-52 |
| <i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i><br>XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING<br>SAMARALI YO'LI SIFATIDA .....                   | 53-58 |
| <i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i><br>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING<br>DOLZARB MASALALARI .....   | 59-64 |

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

|   |       |
|---|-------|
| <i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i><br>SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI .....  | 65-73 |
| <i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i><br>O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI<br>MILLIY-LISONIY BELGILARI ..... | 74-79 |
| <i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i><br>PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA) .....                               | 80-86 |

*Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi*  
XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI  
QIYOSIY O'RGANISH ..... 87-91

*Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna*  
J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI ..... 92-96

*Miraxmedova Zilola Erkinovna*  
EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI ..... 97-101

### 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Абдуолимов Уринбой Худобердиевич*  
ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ  
ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ ..... 102-110

*Алишаев Собир Турсунбоевич*  
СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ  
ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ ..... 111-119

*Muhammadiyah Bahromjon Qodirjon o'g'li*  
OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR  
OILASI MISOLIDA) ..... 120-124

*Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna*  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA  
AMALIYOT ..... 125-135

### 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

*Rashidova Oynisa Xusniddin qizi*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL  
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH ..... 136-140

*Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi*  
DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH ..... 141-146

*Ганпаров Захид Ганпарович*  
ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ  
ПЛАВАНИИ ..... 147-153

*Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna*  
TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY  
QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI ..... 154-159

**Received:** 10 July 2024  
**Accepted:** 15 July 2024  
**Published:** 25 July 2024

*Article / Original Paper*

## **THE CASE OF DETERMINING THE FACT OF PATERNITY (IN THE CASE OF BOTIR QODIROV AND JORAYEV'S FAMILY)**

**Muhammadiyev Bakhromjon Kadirjon ugli**

Student at the Faculty of Law of Namangan State University

**Abstract.** In this article, I will first introduce the legal system of Uzbekistan on determining the facts of work and the fact of paternity. I will try to explain why the determination of paternity is necessary on the example of Botir Qodirov and Jorayev's family. In this case, despite the fact that Botir Qodirov said that he has no claim to the inheritance, if the fact of paternity is determined, I will talk about what rights he actually has according to the law, and then I will make a proposal to the law, and at the end I will make a conclusion. This case is one of the most famous cases related to artists in Uzbekistan, and in this article I will try to systematically analyze the procedural and material legal issues related to this civil case and show what legal consequences the result of the case will bring to light.

**Key words:** Determination of the fact of paternity, cohabitation, joint livelihood, child maintenance, biological expertise, inheritance, copyright.

## **OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO`RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)**

**Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon og'li**

Namangan davlat universteti Yurisprudensiya yo`nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada men avvalo ish faktlari va otalik faktini belgilash bo'yicha o'zbekiston qonunchilik tizimi bilan tanishtiraman. Otalikni belgilash o'zi nima uchun kerakligi masalasini Botir Qodirov va Jo'rayevlar oilasi misolida tushuntirishga harakat qilaman. Bu ishda garchi Botir Qodirov merosga hech qanday da'vosi yo'qligini aytgan bo'lishiga qaramay, otalik fakti belgilanadigan bo'lsa, qonunchilikka binoan aslida qanday huquqlarga ega bo'lishi haqida so'z yuritib, undan keyin qonunchilikka taklif kiritaman, so'ngida esa xulosa yasayman. Ushbu ish O'zbekistondagi sanatkorga oid eng mashhur ishlardan biri bo'lib, ushbu maqolada ushbu fuqarolik ishiga oid prosessual va moddiy huquqiy masalalarni tizimli tahlil qilib, ish natijasi qanday huquqiy oqibatlarini yuzaga chiqarishini korsatib berishga harakat qilaman.

**Kalit so'zlar:** Otalik faktini belgilash, birgalikda yashaganlik, umumiy ro'zg'or yuritganlik, bolani ta'minlab turish, biologik-ekspertiza, meros, mualliflik huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N18>

**Kirish.** Xonanda Botir Qodirovning taniqli, marhum san'atkor Sherali Jo'rayevning o'g'li ekanligi haqida da'vo bilan chiqqanligi ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilikning keng e'tiborini tortdi. hozirda Botir Qodirovning otalik faktini belgilash haqida qilgan da'vosi bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudida sud jarayonlari olib borilmoqda. Bu sud ishida marxum san'atkor Sherali Jo'rayevning farzandlari Shohjahon va Zohirshoh Jo'rayevlarlar javobgar sifatida ishtirok etmoqdalar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ma'lum qilinishicha, 2024 yilning 19 mart kuni[1] xonanda Botir Qodirov otalik faktini belgilash bo'yicha fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritgan. Natijada, ishni ko'rish 15 aprelga belgilangan. Javobgar vakili ish bilan tanishish uchun ishni ko'rishni boshqa kunga qoldirishni so'ragani sababli navbatdagi sud majlisi 23 aprelga qoldirilgan. 23 aprel, seshanba kungi sud majlisida da'vogar vakilining ko'rsatmasi eshitilib, guvohlarni ishga jalb etish va qo'shimcha dalillarni (fotosuratlar, dalolatnoma yozuvi va tug'ilganlik haqidagi guvohnomaning asl nusxasini) talab qilib olish uchun ishni ko'rish 2 mayga qoldirilgan.

Da'vo arizaga Adliya vazirligi huzuridagi Hadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassisining 2023 yil 29 sentyabridagi fikri ilova qilingan. Ilovada Halimjon Nurmatov va Qodirov Botir Sheraliyevichning amaki-jiyan ekani bo'yicha fikr berilgan. Sud ekspertiza 94% aniqlikda ularning amaki jiyani ekanligini tasdiqlagan. Yangiyo'l tumani FHDYO bo'limi tomonidan 2008 yil 26 fevral kuni familiyasini "Jo'rayev"dan "Qodirov"ga, otasining ismini "Sherali o'g'li"dan "Sheraliyevich"ga o'zgartirgani haqidagi 46- va 48-sonli ilovalar sudga taqdim etilgan.

2024 yil 2 may kuni[2] Toshkent shahri Uchtepa tumanlararo sudida xonanda Botir Qodirovning otalikni belgilash haqidagi da'vosi yuzasidan navbatdagi sud majlisi bo'lib o'tgan. Unda sudya aka-uka Jo'rayevlar vakilining ishni unda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarning oshkor bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun yopiq sud majlisida ko'rib chiqish haqida kiritgan iltimosnomasi va Fuqarolik protsessual kodeksining[5] 12-moddasiga asosan Botir Qodirovning da'vosi bo'yicha o'tkaziladigan sud majlislari yopiq tarzda bo'lib o'tishini ma'lum qilgan.

### **Muhokama. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra Botir qodirovning otalik faktini belgilash bo'yicha da'vosi qanday hal etiladi?**

Otalik faktini belgilash oila kodeksi[3] (OK) hamda Oliy sud plenumining "sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida"gi[4] qaroriga (Q) asosan hal etiladi.

Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi raisi Rustam Tangaboyev, otalikni belgilash tartibi to'g'risida tushuntirish berdi[5]: Otalikni belgilash bo'yicha da'voga da'vo muddati belgilanmagan bo'lib(Q. 6-b), agar ota va ona o'rtasida otalik yuzasidan nizo bo'lmasa, FHDYO bo'limlari orqali amalga oshiriladi. Agar nizo mavjud bo'lsa, otalik sud tartibida belgilanadi. Oila kodeksining 61-moddasiga ko'ra, bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning, yoxud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergan arizaga muvofiq amalga oshiriladi.(OK 62-m) Bundan kelib chiqadiki Botir Qodirov otalikni belgilash uchun voyaga yetgan farzand sifatida sudga da'vo kiritishga haqli.

Otalik faktini belgilashga oid hal qiluv qarorlari sud tomonidan har tomonlama tekshirilgan va arz qilingan talablarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi lozim. (Q. 20-b) Otalikni belgilayotganda sud a) bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi yoki b) ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini yoki c) javobgarining otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga oladi. (62-m 3-qism)

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lmagan shaxs vafot etgan holda, sud otalik faktini, ya'ni bolaning o'sha shaxsdan kelib chiqqanligi faktini belgilashga haqli. 1968-yildan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan otalik fakti yuqorida ko'rsatilgan shartlardan hech bo'lmaganda bittasini ishonchli tasdiqlovchi dalillar mavjud bo'lgandagina belgilanishi mumkin. (Q. 18-b)

Javobgarining bolaning onasi bilan **birgalikda yashaganliklari va umumiy ro'zg'or yuritganliklari** oilaviy munosabatlarga xos bo'lgan holatlar (homila paydo bo'lgan vaqtda va bola tug'ilgunga qadar bitta turar joyda yashash, umumiy budjet yuritish, birgalikda ovqatlanish, o'zaro g'amxo'rlik, umumiy foydalanish uchun mol-mulk sotib olish va h.k.lar) mavjudligi bilan tasdiqlanadi. (Q. 8-b) Bola tug'ilgunga qadar taraflar o'rtasida bunday munosabatlarning tugatilishi, o'z-o'zidan, otalikni belgilash to'g'risidagi da'voni rad etish uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi, ular homiladorlik boshlangunga qadar tugatilgan hollar bundan mustasno. **Bolani birgalikda tarbiya qilish** bolaning onasi va javobgar bilan birga yashaganligida yoki javobgarining bola bilan munosabatga kirishib, unga nisbatan otalarcha g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatganligida namoyon bo'ladi (Q. 9-b) **Bolaning birgalikda ta'minlab turilishi** deganda, bola onasi va javobgarining qaramog'ida bo'lganligi yoki javobgar tomonidan bola ta'minoti uchun muttasil yordam ko'rsatilib kelinganligi, bunday yordam miqdoridan qat'i nazar, tushunilishi lozim. (Q. 9-b)

Javobgar tomonidan otalik tan olinganligini tasdiqlovchi boshqa dalillar sifatida sud ishonchli deb topgan har qanday faktik ma'lumotlar (xatlar, telegrammalar, fotosuratlar, anketalar, turli instansiyalarga yozilgan arizalar, audio-, videoyozuvlar, ekspertlar xulosasi), u bolaning otasi ekanligini tan olganligini tasdiqlovchi boshqa harakatlar, shuningdek guvohlarning ko'rsatuvlari bo'lishi mumkin. Bunday iqrorlik onaning homiladorligi davrida ham (masalan, bolalik bo'lishni xohlash, bo'lajak bolaning onasi haqida g'amxo'rlik), bola tug'ilganidan so'ng ham ifoda etilishi mumkin. (Q. 10-b)

Otalikni belgilash to'g'risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin sud shu qaror nusxasini bola tug'ilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboradi (OK 62-m). Agar ona farzandiga o'zining otasining familiyasini bersa, unda otalik belgilangan hisoblanadi va tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvida ota grafasida yozilgan shaxs ota sifatida qabul qilinadi. Bunday holda biologik otaga nisbatan otalikni belgilash mumkin bo'lmaydi. (Q. 5-b).

Sud taqdim etilgan dalillar majmui javobgarining otaligini belgilash uchun yetarli emas, degan xulosaga kelsa, haqiqatni aniqlash va xatolikka yo'l qo'yimaslik maqsadida o'z tashabbusi bilan yoxud tomonlarning talabi asosida tegishli sud odam DNKsi bo'yicha sud-biologik ekspertizalari o'tkazishi mumkin. (Q. 15-b). Shu bilan birga, taraflarning bir joyda istiqomat qilishi va birgalikda xo'jalik yuritishi, o'zaro g'amxo'rlik qilishi va birgalikda yashash uchun mol-mulklar xarid qilganlik holatlarini tasdiqlovchi yetarli dalillar mavjud bo'lsa-da, bolaning otasi, aynan shu javobgar ekanligi to'la va so'zsiz tasdiqlanganligi haqida yanglish va barvaqt xulosaga kelishning oldini olish uchun ham tayinlanishi mumkin. Amaliyotda odam DNK ekspertizasi ko'p hollarda javobgar taraf da'voni (otaligini) tan olmaganda sud tomonidan tayinlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki Botir Qodirov voyaga yetgan farzand sifatida otalikni belgilash bo'yicha sudga da'vo arizasi taqdim etishga haqli hisoblanadi. Va bunda sud ish holatlarini, jumladan, Botir Qodirov, uning onasi, va marxum san'tkor Sherali Jo'rayev bilan umumiy ro'zg'or asosida yashaganliklarini, Sherali Jo'rayevning Botir Qodirovni

ta'minlab turganlik holatlarini hisobga oladi. Bu ishda Botir Qodirovning onasi ham, ota sifatida da'vo qilinayotgan Sherhali Jo'rayev ham vafot etganligi tufayli yuqoridagi faktlarni aniqlashda sud guvohlar ko'rsatmasiga, fotosurat, videoyozuvlarga shuningdek Sherhali Jo'rayev va Botir Qodirov onasi o'rtasida tuzilgan nikoh shartnomasining FHDYO organida saqlanayotgan nusxasiga asosan ishdagi haqiqiy holatlarni aniqlashi mumkin (Botir Qodirov bergan intervyularidan birida onasi va Sherhali Jo'rayev qonuniy nikoh<sup>[6]</sup> asosida yashaganligini ta'kidlagan edi, shunday bo'lsa, nikoh shartnomasining nusxasi FHDYO arxivida saqlanadi). Bundan tashqari, sud bu dalillarni yetarli hisoblamagan taqdirda, xatoga yo'l qo'ymaslik uchun Botir Qodirov va Shaerali Jo'rayevning qarindoshlari, o'g'illari o'rtasida sud DNK biologik-ekspertiza tekshiruvlarini o'tkazish orqali aniqlik kiritishi mumkin.

Yuqoroda nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda Botir Qodirov ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan Sherhali Jo'rayevning boshqa farzandlari bilan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi (OK 64-m).

### **Natijalar. Botir Qodirov Sherhali Jo'rayevning farzandi bo'lib chiqsa qanday huquqlarni qo'lga kiritishi mumkin?**

Botir Qodirov otalikni belgilash bo'yicha ishdagi g'olib bo'lib chiqsa, Sherhali Jo'rayevning boshqa farzandlari bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Bu huquqqa asosan, merosga nisbatan huquqlar kiradi. To'g'ri, Botir Qodirov otalik belgilanadigan bo'lsa, merosga da'vo qilmasligini aytdi<sup>[7]</sup>. Lekin otalik belgilanadigan bo'lsa, u merosdan ulush olishga nisbatan, shu bilan birga Sherhali Jo'rayevning muallifligi ostidagi qo'shiqlardan erkin foydalanish, bundan tashqari, bu qo'shiqlar boshqa shaxslar tomonidan qonunga xilof tarzda foydalanmaslikni (Mualliflik huquqi muallif vafotidan keyin 70 yil muhofaza etiladi (FK 1065-m)<sup>[8]</sup>) talab qilishga nisbatan Sh.Jo'rayevning boshqa bolalari bilan teng huquqqa ega bo'ladi. Chunki "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tog'risida"<sup>[9]</sup> qonunning 36-moddasida muallifning mulkiy huquqi meros bo'yicha o'tishi belgilangan. Unda ko'rsatilishicha muallifning merosxo'rlari muallif huquqlarini himoya qilishga haqlidirlar. Merosxo'rlar bir nechta bo'lgan taqdirda, asardan foydalanish tartibi ular o'rtasidagi kelishuvda belgilanadi. Bunda merosxo'rlardan hech biri boshqa merosxo'rlarning asardan foydalanishini yetarli asoslarsiz ta'qiqlashga haqli emas.

**Qonunchilikka taklif.** Ushbu masalani tahlil qilish davomida ma'lum bo'ldiki, Oliy sud plenumining "sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi tog'risida"<sup>[9]</sup> qarorining 5-bandida agar bolaning tug'ilganlik tog'risidagi guvohnomasiga uni ma'lum otadan tug'ilganligini tasdiqlovchi yozuv FHDYO organi tomonidan kiritilgan bo'lsa, boshqa shaxs tomonidan shu bolaga nisbatan otalikni belgilash tog'risida ariza berilgan taqdirda, sud uni rad etadi. Fikrimcha, qarorning bu bandi otalikni belgilash bo'yicha ariza kiritgan shaxsning huquqlarini cheklaydi. Chunki, bu arizachi haqiqatda bolaning otasi bo'lishi mumkin, lekin u tomondan berilgan arizaning sud tomonidan rad etilishi natijasida uning huquqlari tiklanmay qoladi. Shu bois, ushbu qonun normasi bekor qilinishi zarur.

**Xulosa.** Ushbu blogpostda otalik faktini belgilash masalasini tahlil qildim. Natijada, vafot etgan shaxsni otalik fakti qanday belgilanishi, qolaversa, Botir Qodirovning da'vosi sud tomonidan qanoatlantirilsa, uni qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkinligi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga, tahlillar davomida qonunchilikdagi ba'zi kamchiliklar ham aniqlandi. Umid qilamizki, bu kamchiliklar tegishli organlar tomonidan bartaraf etiladi.

Aytishimiz mumkinki yuqoridagi tahlillar Botir Qodirov ishini hal qila olmaydi, chunki biz bu ish bo'yicha aniq faktik ma'lumotlarga ega bo'lmaganligimiz tufayli, biz faqat umumiy otalik faktini belgilash bo'yicha ishlar sud tomonidan qanday hal qilinishi mumkinkigini tahlil qildik. Haqiqiy hal qiluv qarorni tez kunlarda yopiq tarzda o'tayotgan fuqarolik ishlari bo'yicha Uchtepa tumanlararo sudi sudyasi tomonidan chiqarilgan hal qiluv qarori asosida bilib olamiz.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. <https://kun.uz/kr/62486152>
2. <https://youtube.com/watch?v=v9f5D94eqJM&si=ZvXYKZ8H9DhOS9KH>
3. <https://kun.uz/kr/08222238>
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi
5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
6. Oliy sud plenumining "sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori. 25.11.2011 yildagi 8-son
7. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/otalikni-belgilash-tartibi-qanday>
8. <https://youtube.com/watch?v=XR3FZ9oyZWo&si=wHqUaF8jpBjvBZ9>
9. <https://www.youtube.com/watch?v=v9f5D94eqJM&t=840s>
10. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi
11. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar tog'risida"gi qonun

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).